
Shahar hokimi tibbiyot muassasalarida fuqarolarga yaratilgan qulayliklarni o'rganmoqda

Ayni daqiqalarda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov tibbiyot birlashmasiga qarashli shifoxonalarda soha mutaxassisleri hamda bemorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganmoqda.

Shahar hokimi tibbiyot birlashmasi Muxiddin Shokirov hamrohligida 2-shifoxonaga tashrif buyurdi. Shifoxonadagi issiqlik tizimi o'rganildi.

Shuningdek, bemorlar bilan suhbatlashildi. Davlat byudjeti hisobidan ajratilayotgan dori-darmonlarning bemorlarga ajratilayotganligiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Shifoxonada sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish hamda bemorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha mas'ullarga ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-21 14:32:49